

O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATLARIDA YO'NALMA HARAKAT FE'LLARINING BERILISHI

Nashirova Dilnoza Buriyevna

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
mustaqil tadqiqotchisi*

E-mail: dilnozanashirova1988@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek tilining izohli lug'atida yo'nalma harakati fe'llari talqini o'z yutuq va kamchiliklariga ega. Ingliz tilining izohli lug'atlaridan farqli o'laroq bu lug'atda barcha izohlar rasmiy uslubda bayon etilgan. Izohlar qisqa va lo'nda, misollar izoahda keltirilgan lug'aviy ma'nolar bilan birga pragmatik jihatdan kontekstual semalarini namoyon etadi. Illyustrativ misollar daliliy qiymatga ega, barchasining manbasi keltirib o'tiladi. Ba'zi misollar, xususan, keltirilgan maqollar lingvomadaniy qiymatga ega – bular lug'atning ustunliklaridir.

Kalit so'zlar: izohli lug'at, o'zbek tili, yo'nalma harakat, leksikografik talqin, lug'aviy ma'no.

Аннотация: Толкование глаголов направленного действия в толковом словаре узбекского языка имеет свои преимущества и недостатки. В отличие от аннотированных словарей английского языка, в этом словаре все аннотации представлены в формальном стиле. Объяснения краткие и лаконичные, а примеры показывают прагматически контекстуальные значения наряду с лексическими значениями, данными в объяснении. Наглядные примеры имеют доказательную ценность, все источники цитируются. Некоторые примеры, в частности приведенные пословицы, имеют лингвокультурологическую ценность – в этом преимущества словаря.

Ключевые слова: толковый словарь, узбекский язык, направленное движение, лексикографическая интерпретация, словарное значение.

Abstract: The interpretation of directed action verbs in the explanatory dictionary of the Uzbek language has its advantages and disadvantages. Unlike annotated English dictionaries, all annotations in this dictionary are presented in a formal style. The explanations are short and concise, and the examples show pragmatically contextual meanings along with the lexical meanings given in the explanation. Illustrative examples have evidentiary value, all sources are cited. Some examples, in particular the above proverbs, have linguacultural value - this is the advantage of the dictionary.

Key words: explanatory dictionary, Uzbek language, directed movement, lexico-graphic interpretation, dictionary meaning.

O'zbek tili turkiy tillar oilasida eng qadimiy, boy imkoniyatlarga ega, leksik, grammatik jihatdan mukammal a'zolardan biridir. Uning boshqa turkiy tillardan ustunligi fonetik sathda unli tovushlarning xilma-xilligidan tortib, morfologik sathda kategoriyalar mukammalligi, leksik sathda vositalar polisemiyasida ko'zga tashlanadi. Lekin ushbu boy, keng qamrovli, murakkab tuzilish hamda tizimga ega til formal jihatdan o'tgan asr boshlaridan tadqiq qilina boshlandi. Hali o'zbek tilining lisoniy imkoniyatlari turli sathlar doirasida batamom modellashtirilib bo'lmadi. Tilshunoslar grammatik kategoriyalar va turli semantik paradigmalar xossalarini aniqlashda davom etayotirlar. Shu va shu kabi boshqa lingvistik

tadqiqotlarni nihoyalab, tugal xulosalarga erishgan g'arb tilshunosligi esa allaqachon tilshunoslik nazariyalaridan amaliyotga yuzlangan. G'arb tilshunosligi tilni amaliy jihatdan isloh qilish, inson nutqi mexanizmlarini o'rganish, sun'iy intellekt nutqiy imkoniyatlarini kengaytirish kabi innovativ vazifalar bilan band. Leksikografik ishlar ham an'anaviy shakldan cheklanib onlayn platformada takomillashtirilmoqda. Mutaxassislar hamda keng jamoatchilik e'tiboriga yangi lug'at turlari, leksikografik resurslar, xususan, til korpuslari hamda tezaurus lug'atlar taqdim etilmoqda [1]. Albatta, ilg'or texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar asosida shakllangan yangi g'arb leksikografiyasi, jumladan, ingliz tili lug'atchiligi bilan qiyoslaganda hozirgi o'zbek leksikografiyasi sohadagi yangi tendensiyalarni endi o'zlashtirmoqda [2]. Til korpusi va tezaurus lug'atlar yaratish masalasiga yaqin yillardan kirishildi. O'zbek tilidagi eng yirik, hozirgi kunga qadar yagona bo'lgan izohli lug'at o'zida o'quv lug'ati, qomusiy lug'at vazifalarini uyg'unlashtirgan. Ushbu lug'at klassik leksikografiya na'munasi bo'lib undagi lug'at maqolalar izoh va illyustrativ dalillardan tashkl topgan, ba'zi o'rinlarda so'zlarning grammatik ko'rsatkichlari va etimologiyasi haqida ham ma'lumot beriladi. Lug'atdagi izoh va misollarning umumiy xarakterini ochib berishda nutqimizda eng faol qo'llaniladigan yo'nalma harakat fe'llariga murojaat qilamiz.

QULAMOQ 1 Zarb bilan yiqil-moq; ag'darilmoq. *Zilzilada ko'pgina eski uylar devorlar quladi. Chirigan daraxt qulab tushdi. Mana shu tog' cho'qqisida bir cho'pon, oyog'i tagidagi tosh ko'chib, pastga qqlab ketadi. S.Ahmad, Jimjitlik. Tog'ning kunbotar tomoniga urush yillarida samolyot qulagan.*

2 *ko'chma* Yo'q, mahv bo'lmoq, yo'q, mavh etilmoq, ag'darilmoq; tushmoq. *Qulamasin Chambil yurti. "Gulnorpari". Ustunlari tezlik bilan yakson qilingan bo'lsa ham, eski jamiyat osonlikcha qulamadi. "O'TA". Podshoh taxi qulaydigan kunlar kelar. "Boychechak"*

3. *ko'chma s.t.* Olamdan o'tmoq; o'lmoq. *Chol qulamay turibdi. Qulagan kun ularning yoqasini bo'g'aman,*

YIQILMOQ 1 Tik holatini yo'qotib, yer tomon tushmoq; qulamoq. *Ko'kka boqqan yiqilar. Maqol. Said Jalolxon o'rnidan turgan edi, gandiraklab yiqildi. A.Qahhor, Bashorat. Isfandiyorxon... Avazning betiga shapaloq tortib yubordi. Avaz gandirakladi-yu, yiqil-madi. S.Siyeyov, Avaz. Ko'chada gursillab devorlar yiqildi, sharaqlab daraxtlar qulaydi. A.Qahhor, Bashorat.*

2 Tepadagi joyidan pastga tomon qulamoq. *Daraxtdan yqilmoq. Tomdan yiqilmoq. Chavandozlardan biri marraga yaqin qolgan yerda otdan yiqildi. K.Yashin, Hamza.*

3. Kurashdayengilmoq, mag'lubiyat-ga uchramoq. *Yiqitgan mard emas, yiqilganni turgazib qo'ygan mard.*

<p><i>merosimni da'vo qilaman!</i> Oybek, Tanlangan asarlar. <i>Ikki o'g'lim biri o'n sakkizda, boshqasi yigirmada – nemis o'qidan qo'ladi.</i> S.Karomatov, Oltin qum</p>	<p>Maqol. <i>Yiqilgan kurashga to'ymas.</i> Maqol. 4. ko'chma. Intixonda yomon baxo olmoq, sinvdan o'tolmay qolmoq. <i>Nigora Toshkentga o'qishga kelgan ekan, kimyodan topshira olmay yiqilibdi.</i> M.Qoriyev, Oydin kechal. 5. ko'chma. Hokimiyatdan mahrum bo'lmoq, adramoq; ag'darilmoq; yo'q qilinoq. Mustabit hokimiyat yiqildi.</p>
--	---

Yuqorida keltirilgan “qulamoq” va “yiqilmoq” lug'aviy ma'nosidagi pastga harakat yo'nalishi semasi bilan bir-biriga ma'nodosh bo'la oladi. Biroq lug'atda keltirilgan izoh va misollar ushbu ikki leksema nutqda variantdosh sifatida qo'llanishi mumkin emasligini namoyon etadi. Illyustrativ dalillardan anglashilganidek “qulamoq” so'zi insonga nisbatan qo'llana olmaydi, ushbu so'z inson bilan irikuvda kelsa ma'no siljishi ro'y berib, yiqilishni emas o'limni anglatadi. Qulamoq so'zi asosan jonsiz otlar bilan qo'llanib yirik bir obyektning buzilishi semasini ifodalaydi. “Yiqilmoq” so'zining esa lug'aviy va ifoda ma'nosi “qulamoq” fe'lidan kengroq. Uning lug'aviy ma'nosi tarkibida kishining yiqilishi, biror katta yoki kichik obyektning buzilishi, mag'lubiyatga uchrash kabi semalar mavjud. “Qulamoq” so'zidagi vafot etmoq ma'nosidan tashqari boshqa barcha semalar mavjud. Demak, “yiqilmoq” so'zi qo'llanish doirasiga ko'ra ma'nodosh juftiga nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega. Yiqilmoq so'zining kundalik nutqda qo'llanish chastotasi yuqori darajada, buni izohlarga ilova qilingan xalq maqollari ham asoslaydi. Umuman olganda, o'zbek tilining izohli lug'atiga xos bo'lgan ustunlik izohlarga xalq maqollari, naqlarning ilova qilinishidir. Ingliz tilining izohli lug'atlarida bunday ma'lumotlar kuzatilmaydi. Maqol va naqlar tilning milliy kaloriti, lozim bo'lsa olamning milliy lisoniy tasvirini ko'rsatib beruvchi muhim lisoniy fenomendir. Misollardan ko'rinib turganidek, qulamoq so'zining qo'llanish doirasi torroq, misollarda ushbu so'z uslubiy bo'yoqdorligini namoyon etadi. Izohlardan ushbu ikki so'z bir-biriga ma'nodosh bo'la olsa-da, bir-birining o'rnini bosa olmaydi. Demak, ular o'zaro qisman ma'nodoshdir [3:178], bu o'zbek tilining izohli lug'atida berilgan maqolalar qiyosida anglashiladi.

<p>YUKSALMOQ 1 Baland ko'tarila bormoq, yuqori tomon o'rlamoq. <i>Hammaning ko'zi uzoqdagi,</i></p>	<p>O'SMOQ 1 Rivojlanib bo'yiga yoki uzunasiga o'zini qo'ymoq, cho'zilmoq, rivojlanmoq. <i>Bola yaxshi</i></p>
--	--

<p><i>osmonni yutmoqchidek quturib yuksalgan dahshatli yong'inda edi. Oybek, Quyosh qoraymas. Cho'qqilarga ketsam yuksalib, Pastda qolib ketar adirlar. U.Qo'chqorov.</i></p> <p>2 <i>ko'chma O'smoq, rivojlanmoq; kamolotga erishmoq. Madaniyatimiz tobora yuksalmoqda. Asosiy vazifadardan biri yosh havaskor yozuvchilarning ijodiy yuksalishiga yordam berishdir. N.Safaov, Olovli izlar.</i></p>	<p><i>o'sdi. Katta maydondashi g'o'zalar barq urib o'syapti. Bodom daraxti yer tanlamaydi, toshloq, qumloq joylarda ham o'saveradi.</i></p> <p>2 Ko'kargan (o'sgan) holda bo'lmoq (daraxt, o'simlik haqida). <i>Ko'chamizning muyulishida o'sgan sada tagiga qo'lgan karovatda ikki kampir dam olib o'tiribdi. Gazetadan.</i></p> <p>3 Katta bo'lmoq, balog'atga yetmoq; ulg'aymoq. <i>U tug'ilib o'sgan qishlog'ining har bir devoriga tikilib boqardi. S.Ahmad, Ufq.</i></p> <p>4 Son-miqdor, daraja va sh.k. jihati ortmoq, kuchaymoq. <i>O'tgan yili jamiyat a'zolarining soni birmuncha o'sdi. Gazetadan.</i></p> <p>5 Ko'ngli o'smoq. Ko'ngli ko'tarilmoq, ko'tainki ruhga ega bo'lmoq, ruhlanmoq.</p>
---	--

Yuksalmoq va o'smoq yo'nalma harakat fe'llari ham umumiy semaga ega. Ularning umumiy ma'nosi "yuqoriga tomon harakatlanmoq"dir. Bundan tashqari ushbu so'zlar izohiga ilova qilingan miosllardan ularga xos qator tarz ma'nolari ham anglashiladi. Har ikkala yo'nalma harakat fe'li davomiylik, uzluksizlik va noto'liqlik tarz semalariga ega. Demak, bu juftlik orasidagi ma'nodoshlik munosabati yuqoridagi juft leksemaga nisbatan zichroqdir. Bu juftlikda "o'smoq" yo'nalma harakt fe'lining qo'llanish doirasi ham, jonli nutqda qo'llanish chastotasi ham yuqori darajada. Buni o'smoq leksemasi lug'at maqolasiga keltirilgan qator semalar izohi va misollar isbotlaydi.

Izohli lug'atning qiymatini uning informativlik darajasi belgilab beradi. Mukammal izohli lug'atlarda so'zlarning grammatik ko'rsatkichlari, etimologik ma'lumotlar, so'zning qo'llanish o'rni, qo'llanish chastotasi hamda uslubiy ma'lumotlar keltiriladi. Bu parametrlar nafaqat badii asarlardagi misollar, balki xalq og'zaki ijodidan maqollar, naqllar bilan boyitilishi lozim [4,5]. O'zbek tilining izohli lug'atida shu ko'rsatkichlardan faqat illyustrativ dalillash borasida ustunlikni ko'ramiz. Lug'atdagi misollar manbasi ilova qilingan, dalillar orasida tilning milliy

koloritini ko'rsatib beruvchi jummalarni ko'ramiz. Biroq grammatik va etimologik ma'lumotlarga aksariyat hollarda e'tibor qaratilmagan.

Leksemaning etiologiyasi haqida to'xtalish shart ekanligini bot-bot aytib o'tdik. Bunday ma'lumot tilshunoslar uchun zarur bo'lishi bilan birga o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan o'quvchilarga assotsiativ metodda lug'at sathini o'zlashtirish imkonini beradi. Ya'ni so'z asosi, qaysi tildan kirib kelganligi, yoki qadimiy o'zagi qanday bo'lganligi, vaqt o'tishi bilan leksema tarkibidagi fonetik o'zgarishlar qanday ro'y berganligi – tilning taraqqiy etish mexanizmlarini anglashga ko'mak beradi. Til modelini idrok etish, uning rivojlanish yo'lini anglab yetish esa, bilamizki, ushbu tilni pishiq o'zlashtirish asosi bo'ladi. Nafaqat yo'nalma harakat fe'llari, balki butun leksik sathni shunday qomusiy yondashuvda izohlash o'zbekzabon kishilar nutqini ravon qilishda leksik baza vazifasini bajara oladi.

Turkiy tillar tarixiy jarayonlar ta'sirida arab, mo'g'il, fors tillari bilan qorishib rivojlandi. Sanab o'tilgan tillardan kirib kelgan leksik birliklar o'zaro madaniy, diniy, siyosiy va iqtisodiy hamkorlik natijasidir. Ayni shunday intensiv integratsiya natijasida rivojlangan ingliz tilidan o'zbek tilining bir asosiy farqi mavjud. Ingliz tilida sof lug'at sathini tashkil etuvchi, ya'ni o'zlashmagan so'zlar maydoni juda tor. Sof ingliz tilining lug'aviy birliklari eskirgan, davr ta'sirida fonetik o'zgarishlarga va semantik siljishlarga uchragan [6:168]. O'zbek tilining o'zlashmagan, sof turkiy so'zlari esa bunday keskin o'zgarishlarni boshdan kechirmagan. Tildagi fe'llarning aksariyati o'zlashmagan, eng faol qo'llanadigan harakat fe'llarining ko'pi turkiy etimologiyaga ega [7,8]. Jumladan, qator yo'nalma harakat fe'llari taqlid va tasviriy birliklar asosida shakllangan. Bunday oraliq turkum birliklari faqat bir tilga xos, o'sha tilda so'zlashuvchi kishilarning artikulyatsion o'ziga xosliklari umumlashmasidir. Asosan og'zaki, norasmiy so'zlashuv doirasiga mansub bo'lgan tasviriy, taqlidiy birliklar asosida shakllangan yo'nalma harakat fe'llari ham aynan shunday xususiyatlarga ega. Keltirilgan har bir yo'nalma harakat fe'li o'ziga xos tarz ma'nosiga ega. Sof yo'nalma harakat fe'llari keltirilgan izoh-lardan farqli o'laroq taqlidlar asosida shakllangan leksemalar izohlarda ushbu fe'l-larning davomiylik, oniylik, jadallik, sekinlik kabi tarz ma'nolarni ilova qilingan.

Lug'atdagi maqolalarni yanada takomillashtirish mumkin. Masalan, leksemalarning grammatik parametrlarini izohdan avval berish, so'ng so'z etimologiyasi haqidagi ma'lumotlarni berish lozim. Bu lug'atdagi barcha maqolalarda bo'lishi kerak bo'lgan ma'lumotlardir. Xususan, yo'nalma harakat fe'llari talqinida ularning izohiga tarz ma'nolarini qo'shish lozim. So'zning polisemik xususiyatlarini ochib beradigan metaforik jumlar, maqollar bilan boyitish kerak.

Adabiyotlar:

1. Hartmann K., James G. Dictionary of Lexicography. Routledge. – L. and N.Y., 2002.
2. Дадабоев Ҳ. Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси модули бўйича ўқув-услубий мажмуа – Тошкент: Университет. 2016 – 98 б.
3. Апресян Ҳ. Lexical semantics. Synonymous means of language. - Moscow: Nauka, 1974. 367 p.; Berezhan S. Semantic equivalence of lexical units. – Chisinau: Stiinz, 1973. – 178 p.
4. Денисов П. Об универсальной структуре словарной статьи // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – Москва: Русский язык, 1977. – 503 с.
5. Каламбет Е. Проявления антропоцентризма в современной отечественной лексикографии: на материале лингвистических словарей: дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 168 с.
6. Ступин Л. Лексикография английского языка. – Москва: Высшая школа, 1985. – 168 с.
7. Tursunaliyevna, A. M. (2021, August). OCCASIONALISM AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 19-23).
8. Рафиев А. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон. 2004. – 194 б.
9. Abdurahmanova, M., & Rahmanova, A. (2021). КОРПУС ЛИНГВИСТИКАСИДА ПОЛИСЕМИЯ. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
10. Юлдашев А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. Москва: Наука. 1965. – 275 с.